



## DRESS CULTURE AND HYBRID IDENTITY IN THE TRANSNATIONAL SPACE: THE CASE OF UZBEK MIGRANTS IN EUROPE

*Ravshan Hamdamovich Abduzohirov*

*Lecturer, Department of Archaeology and Ethnology*

*Faculty of History*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*E-mail: [ravshan.abduzohirov@gmail.com](mailto:ravshan.abduzohirov@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** hybrid identity, clothing culture, transnational space, diaspora, acculturation, Uzbek migrants, national pattern, cultural identity, third space.

**Received:** 19.06.26

**Accepted:** 20.06.26

**Published:** 21.06.26

**Abstract:** This article examines the phenomenon of hybrid cultural identity formed through clothing practices among Uzbek migrants in Germany and the United Kingdom, analyzed through ethnological and anthropological perspectives. The study is based on field observations and in-depth interviews with informants. S. Hall's cultural hybridity theory, H. Bhabha's 'third space' concept, and J. Berry's acculturation model serve as the theoretical framework. The findings reveal the widespread prevalence of a 'hybrid clothing style' combining contemporary European fashion with traditional Uzbek national patterns, and that national pattern accessories – particularly neckties – have become symbolic tools for preserving and displaying cultural identity. The article demonstrates that clothing practices have become a conscious strategy for migrants to reinforce personal identity, maintain community ties, and present their culture to foreign societies. The study contributes to Uzbek migration research by enriching the topic of clothing culture and hybrid identity with new empirical materials.

## TRANSMILLIY MAKONDA KIYINISH MADANIYATI VA GIBRID IDENTITET: YEVROPADAGI O'ZBEK MIGRANTLARI MISOLIDA

*Ravshan Hamdamovich Abduzohirov*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*Tarix fakulteti Arxeologiya va etnologiya kafedrasida o'qituvchisi*

*E-mail: [ravshan.abduzohirov@gmail.com](mailto:ravshan.abduzohirov@gmail.com)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** gibrid identitet, kiyinish madaniyati, transmilliy makon, diaspora, akkul'turatsiya, o'zbek migrantlari, milliy naqsh, madaniy identitet, uchinchi makon.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Germaniya va Buyuk Britaniyada yashovchi o'zbek migrantlarining kiyinish amaliyotlari orqali shakllanadigan gibrid madaniy identitet hodisasi etnologik va antropologik jihatdan tadqiq etiladi. Tadqiqot dala kuzatuvlari va axborotchilar bilan o'tkazilgan chuqur suhbatlarga asoslanadi. S. Hall madaniy gibridlik nazariyasi, H. Bhabha «uchinchi makon» konsepsiyasi va J. Berry akkul'turatsiya modeli nazariy asos sifatida qo'llaniladi. Tadqiqot natijalarida zamonaviy Yevropa uslubi bilan an'anaviy o'zbek milliy naqshlarini uyg'unlashtirgan «gibrid kiyinish uslubi»ning keng tarqalganligi, milliy naqshli aksessuarlar – xususan bo'yinbog'lar – ning madaniy identitetni ramziy saqlash va namoyish etish vositasiga aylanganligini aniqladi. Kiyinish amaliyoti migrantlar uchun shaxsiy o'zlikni mustahkamlash, hamjamiyat aloqalarini saqlash va xorijiy jamiyatga o'z madaniyatini taqdim etishning ongli strategiyasiga aylanganligi ko'rsatildi. Maqola o'zbek migratsiyasi tadqiqotlarida kiyinish madaniyati va gibrid identitet mavzusini yangi empirik materiallar asosida boyitishga hissa qo'shadi.

### КУЛЬТУРА ОДЕЖДЫ И ГИБРИДНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ В ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ: НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ МИГРАНТОВ В ЕВРОПЕ

*Равшан Хамдамович Абдузохиров*

*Преподаватель кафедры археологии и этнологии*

*Исторический факультет*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*E-mail: [ravshan.abduzohirov@gmail.com](mailto:ravshan.abduzohirov@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** гибридная идентичность, культура транснациональное пространство, диаспора, аккультурация, мигранты, национальный орнамент, гибридная одежда, культурной идентичности, узбекские орнамент, исследуется феномен гибридной культуры, формирующейся посредством практик одежды среди узбекских мигрантов в Германии и

культурная идентичность, третье пространство. Великобритания, рассматриваемый с этнологической и антропологической точек зрения. Исследование основано на полевых наблюдениях и углублённых интервью с информантами. В качестве теоретической базы использованы теория культурной гибридности С. Холла, концепция «третьего пространства» Х. Бхабха и модель аккультурации Дж. Берри. Результаты исследования выявили широкое распространение «гибридного стиля одежды», сочетающего современную европейскую моду с традиционными узбекскими национальными узорами, а также то, что аксессуары с национальными орнаментами — в особенности галстуки — превратились в символические инструменты сохранения и демонстрации культурной идентичности. В статье показано, что практики одежды стали осознанной стратегией мигрантов для укрепления личной идентичности, поддержания общественных связей и представления своей культуры в инокультурной среде. Исследование вносит вклад в узбекскую миграционную науку, обогащая тематику культуры одежды и гибридной идентичности новыми эмпирическими материалами.

**Kirish.** Zamonaviy globallashuv jarayonlari xalqaro migratsiyani misli ko‘rilmagan darajada kuchaytirib, millionlab odamlarni yangi madaniy muhitlarga olib kirmoqda. Bu jarayonda migrantlar o‘z an‘anaviy madaniyati bilan yangi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab muvozanatni saqlashga majbur bo‘ladilar. Mazkur munosabatning eng ko‘rinadigan, kundalik hayotda doimiy namoyon bo‘ladigan ifodalaridan biri – kiyinish madaniyatidir. Kiyim-kechak shunchaki tana qoplamasi emas; u shaxsiy identitetni, ijtimoiy maqomni, madaniy mansublikni va hissiy holatni bir vaqtning o‘zida ifodalay oladigan murakkab ijtimoiy belgilar tizimi hisoblanadi [1, б. 1].

O‘zbekistondan tashqi migratsiya XX asrning 90-yillari oxiridan boshlab jadal kuchayib, hozirgi kunda Yevropa mamlakatlarini ham qamrab olmoqda. Qashqadaryo viloyatidan Germaniya va Buyuk Britaniyaga yo‘nalgan migratsiya oqimi 2015–2016 yillardan e‘tiboran sezilarli kuchaydi. Bu mamlakatlarda yashovchi o‘zbek migrantlari madaniy jihatdan turli qirrali tajribani boshidan kechirayotganligi dala tadqiqotlari davomida kuzatildi. Ularning kiyinish amaliyotlari bu tajribaning eng ko‘rinadigan va o‘ziga xos ko‘rinishlaridan birini tashkil etadi.

Migratsiya tadqiqotlarida kiyinish madaniyati ko‘pincha ikkinchi darajali mavzu sifatida ko‘rilgan. Biroq so‘nggi o‘n yilliklarda kiyim-kechakni madaniy identitet, ijtimoiy moslashuv va diaspora shakllanishining muhim vositasi sifatida o‘rganuvchi tadqiqotlar soni ortib bormoqda [2, 6. 45]. O‘zbek migratsiyasi kontekstida bu mavzu hali yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadini ko‘zlaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u o‘zbek migrantlarining kiyinish amaliyotlarini birinchi marta to‘liq etnografik tahlil obyektiga aylantiradi va Germaniya hamda Buyuk Britaniya kontekstlarini qiyosiy usulda o‘rganadi. Bundan tashqari, maqolada «gibrid kiyinish uslubi» tushunchasi o‘zbek diasporasi misolida dastlab qo‘llanilmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Kiyinish madaniyati ijtimoiy fan sohasi obyekt sifatida o‘rganish so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Kiyinish sotsiologiyasining asoschilaridan biri J. Entwistle kiyim-kechakning shaxsiy identitet bilan ijtimoiy strukturaning kesishish nuqtasida joylashganligini asoslaydi [1, 6. 7]. Uning “moda va zamonaviy ijtimoiy hayot” kontsepsiyasiga ko‘ra, kiyinish nafaqat shaxsiy tanlov, balki ijtimoiy me‘yorlar, madaniy qadriyatlar va identitet siyosatining moddiy ifodasi hisoblanadi. Tadqiqotchi G. Simmel kiyimni “ijtimoiy farqlanish» (social differentiation) vositasi sifatida tavsiflab, uning ham birlashtiruvchi, ham ajratuvchi ijtimoiy funksiyasini ko‘rsatgan [3, 6. 541].

Diaspora va migratsiya kontekstida kiyinish madaniyatini o‘rganish sohasida T. Tulloch muhim hissa qo‘shgan. U “diaspora estetikasi” (diaspora aesthetics) tushunchasini kiritib, migrantlarning kiyinish uslubida ikki yoki undan ko‘p madaniy tizimning ijodiy sintezi namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [4, 6. 127]. Shuningdek, ushbu sohada tadqiqot olib borgan E. Morin kiyim-kechakning diaspora sharoitida “madaniy artefakt” sifatida yangi ma‘no kasb etishini, ya‘ni oddiy kiyimning ramziy madaniy obyektga aylanishini ta‘kidlaydi [5, 6. 218].

Gibrid identitet va “uchinchi makon” nazariyasi migratsiya sharoitida kiyimlar milliy identitlikni saqlovchi va namoyish etuvchi vosita sifatida ko‘rsatib o‘tishgan. Tadqiqotchi S. Hall postkolonial madaniyat nazariyasida identitetni o‘zgarimas, qat‘iy belgilangan hodisa sifatida emas, balki doimiy ravishda qayta shakllanadigan dinamik jarayon sifatida ko‘radi [6, 6. 222]. Hall diaspora sharoitida yashayotgan shaxslar ikki madaniy tizim orasida joylashib, “eski” va “yangi” madaniyatning sintezidan yangi, o‘ziga xos gibrid identitet yaratishini ko‘rsatadi. Bu identitet na to‘liq asl madaniyat, na to‘liq yangi madaniyat – u ikkalasining ijodiy uyg‘unlashuvi hisoblanadi. Ya‘ni bunda gibrid madaniyat shakllanadi.

Tadqiqotchi H. Bhabha Hall nazariyasini yanada chuqurlashtirib, «uchinchi makon» (third space) konsepsiyasini ishlab chiqadi [7, 6. 37]. Bhabha fikricha, madaniyatlararo muloqot sodir bo‘lganda ikkita madaniyat bir-birini siqib chiqarmaydi – ular o‘rtasida «uchinchi makon» paydo

bo'lib, bu makon gibrid shakllarga – gibrid kiyinish, gibrid ovqat, gibrid til – zamin yaratadi. Bu «uchinchi makon» passiv emas, u dominant madaniyat ta'siriga qarshi madaniy muzokaralar va qarshilikning sahnasidir.

Akkulturatsiya va integratsiya modellari doirasida kiyimlarning migratsiya sharoitida identiklikni saqlash strategiyalari tadqiq etilgan. Tadqiqotchi J. Berry akkulturatsiya nazariyasida migrantlarning yangi madaniyatga munosabatini to'rt strategiya orqali tasvirlaydi: assimilyatsiya, integratsiya, separatsiya va marginalizatsiya [8, 6. 9]. Berry tadqiqotlari ko'rsatishicha, integratsiya strategiyasi – ya'ni o'z madaniyatini saqlab turib yangi madaniyatni ham qabul qilish – migrantlarning psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuvi uchun eng qulay yo'nalish hisoblanadi. Kiyinish amaliyotlari bu integratsiya strategiyasining eng ko'rinadigan moddiy ifodasiga aylanishi mumkin.

Markaziy Osiyo migratsiyasi kontekstida tadqiqotchi A. Isabayeva Qirg'izistonlik mehnat migrantlari misolida diaspora amaliyotlarini o'rganib, identitet saqlash strategiyalarining hududga va vaqtga qarab o'zgaruvchanligini ko'rsatdi [9, 6. 545]. O'zbek migratsiyasi sohasida esa tadqiqotchi S. Abashin transmilliy o'zbek hamjamiyatlarini tadqiq etib, madaniy identitetning migratsiya jarayonida transformatsiya bo'lsa ham barqaror yadrosini saqlab qolishini aniqladi [10, 6. 89].

**Tahlil va natijalar.** Dala tadqiqotlari davomida Germaniya va Buyuk Britaniyada yashovchi o'zbek migrantlari orasida o'ziga xos kiyinish madaniyatining shakllanganligi aniq kuzatildi. Bu madaniyatning asosiy xususiyati – zamonaviy Yevropa kiyim uslublari bilan an'anaviy o'zbek milliy naqshlari va matolarining ijodiy sintezi. Axborotchilarning aksariyati kundalik hayotda Yevropa kiyimlarini kiyarkan, muhim ijtimoiy tadbirlar – bayramlar, to'ylar, hamjamiyat yig'inlari, milliy tantanalar – da milliy elementlarni o'z ichiga olgan kiyimlarni afzal ko'rishi kuzatildi.

Erkaklar orasida eng keng tarqalgan gibrid kiyinish shakli – yevropa kiyimlari va milliy bosh kiyimimiz bo'lgan do'ppini birgalikda kiyib yurishdir. Va ba'zi hollarda milliy o'zbek naqshlari tushirilgan zamonaviy bo'yinbog'lar ham taqib yurishadi. London va Berlindagi o'zbek diasporasi yig'inlarida bu do'ppi va bo'yinbog'lar milliy mansublikni ko'rsatishning qulay, zamonaviy va estetik jihatdan maqbul vositasiga aylangan. Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra, «Bu do'ppi va bo'yinbog'ni kiygan paytda o'zbekligimni unutmayman – bu menga kuch beradi. Nemislar ham so'rashadi, qiziqishadi – men o'z madaniyatimni ular bilan baham ko'raman» [13].

Ayollar orasida esa atlas va adras matolaridan tikilgan zamonaviy kesimli ko'ylaklar keng tarqalgan. Bu ko'ylaklar an'anaviy o'zbek libosining to'liq ko'chirilishi emas – ular zamonaviy

Yevropa kesimi, uzunligi va qirqimiga ega bo'lgan holda faqat matosi yoki naqshi orqali milliy madaniyatni ifodalaydi. Bundan tashqari, milliy naqshli ro'mollar, sumkalar va bilakuzuklar ham keng tarqalgan aksessuarlar sifatida qayd etildi. Ayollar bu aksessuarlarni oddiy Yevropa kiyimlari bilan birlashtirib, subtil gibrud uslub yaratadilar.

Manchester'da yashovchi axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra: "Men atlas ko'ylak kiyib chiqqanimda, odamlar "bu nima?" deb so'rashadi. Men o'z madaniyatimni tushuntirib beraman. Bu menga yoqadi – men o'zbek ekanligimni yashirmayman". Bu vaqtda o'zbekligimdan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi [14]. Bu fikr Bhabha ta'riflagan "madaniy namoyish" (cultural performance) tushunchasiga mos keladi: migrant o'z madaniyatini nafaqat o'zi uchun, balki atrofdagilar uchun ham ongli ravishda "ijro etadi" [7, 6. 45]. Ya'ni etnik o'zligini boshqalarga namoyon etadi.

Tadqiqotning muhim topilmalaridan biri – kiyinish amaliyotlarining ijtimoiy kontekstga qarab sezilarli farqlanishidir. Ish joyida va rasmiy muhitda aksariyat axborotchilar to'liq Yevropa kiyimlarini tanlaydi. Bu moslashuvning amaliy zaruriyatini ifodalaydi: professional muhitda identifikatsiya emas, funktsionallik ustuvorlik qiladi. Biroq diaspora ichidagi norasmiy yig'inlarda, o'zbek madaniy markazlarida va oilaviy bayramlarda milliy elementlarga qaytish aniq kuzatiladi.

Berlinda yashovchi respondentlarimiz orasida bu kontekstual farqni aniq ifodaladi. Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra, «Ish joyida to'liq nemischa kiyinaman – bu zarur. Lekin shanba kuni o'zbeklar yig'ilganda, albatta bir nima o'zbekcha bo'ladi – bo'yinbog', yoki ko'ylak naqshi, bosh kiyim yoki boshqa narsa. Barcha o'zbeklar bu vaqtda o'z-o'zimizcha bo'lamiz» [13]. Bu fikr tadqiqotchi Berryning akkulturatsiya modelidagi "situatsion integratsiya" tushunchasini tasdiqlaydi: migrant turli ijtimoiy maydonda turli madaniy strategiyani qo'llaydi, lekin hech qachon o'z asosiy identitetidan to'liq uzmaydi [8, 6. 12]. Bu holatda kiyim milliy identifikatsiya saqlovchi va uzatuvchi vosita sifatida ko'riladi.

Ayniqsa e'tiborli holat – milliy bayramlarda kiyinishning o'zgarishi. Navro'z, mustaqillik kuni va Ramazon bayramlarida migrantlarning aksariyati to'liq milliy kiyimga – do'ppi, chopan, atlas ko'ylak – o'tishi kuzatildi. Bu bayramlar kiyinish orqali madaniy identitetni eng to'liq ifodalash imkoniyati sifatida qabul qilinadi. Axborotchilarimiz bergan ma'lumotlarga ko'ra: "Navro'zda milliy kiyim kiymasam, bayram bo'lmaydi. Bu bizning bayramimiz – shu kiyimlar bilan bo'ladi". Milliy liboslarsiz o'zbek bayramini his etib bo'lmaydi [14].

Tadqiqot kiyinish amaliyotlarining o'zbek migrantlari uchun uchta asosiy ijtimoiy funktsiyani bajarishini ko'rsatdi.

Birinchi funksiya – shaxsiy identitetni mustahkamlash. Ko‘plab axborotchilar milliy kiyim elementlarini kiyganlarida o‘zlarini “to‘liqroq” his etishlarini ta’kidladi. Bu psixologik hodisa tadqiqotchi Hall ta’riflagan identitetning “hissiy ildiz” (emotional root) jihatiga mos keladi: kiyim shaxsga o‘zining kim ekanligini eslatuvchi moddiy ramz vazifasini bajaradi [6, 6. 230]. Xorijdagi o‘zbeklarda ham bu holat kuzatiladi.

Ikkinchi funksiya – hamjamiyat ichidagi aloqani saqlash. O‘zbek diasporasi yig‘inlarida milliy elementli kiyimlar “biz” hissini kuchaytiradi va hamjamiyat a’zolari orasida o‘zaro tanishishni osonlashtiradi. Axborotchilar ta’kidlashicha, milliy naqshli kiyim kiygan odamni ko‘rganlarida darhol muloqotga kirishish istagi paydo bo‘ladi – bu kiyim “hamjamiyat belgisi” (community marker) sifatida ishlaydi.

Uchinchi funksiya – xorijiy jamiyatga madaniyatni taqdim etish. Bir qator axborotchilar milliy kiyim elementlarini ataylab tanlashining sababi sifatida o‘z madaniyatini xorijliklarga ko‘rsatish istagini bildirdi. Bu funksiya ayniqsa ikkinchi avlod uchun muhim – ular milliy kiyim orqali o‘zbeklarning kimligini va madaniyatining boyligini ko‘rsatishga intiladi. Myunxenda yashovchi axborotchimiz shunday dedi: “Atlasdagi ko‘ylagimni kiyib ish joyiga borganman. Hamkasblarim “bu juda chiroyli, qayerdan?” deb so‘rashdi. Men O‘zbekistonni tushuntirib berdim. Ular hayron qolishdi – bunday jozibadorlikni o‘zbek xalqi moddiy madaniyatiga tegishlilikini bilishmagan ekan”[13].

Ikki mamlakatdagi o‘zbek migrantlaridagi kiyinish amaliyotlarini qiyoslasak, ular o‘rtasida bir qator farqlar kuzatildi. Germaniyada migrantlar kiyinishda yanada ehtiyotkorroq yondashuv namoyon etadi: ish joyida madaniy farqni ko‘rsatmaslik tendensiyasi kuchliroq. Bu Germaniya mehnat madaniyatining professionallik va konformizm talablariga bog‘liq. Biroq diaspora ichidagi yig‘inlarda va oilaviy muhitda gibrud uslub yaqqol namoyon bo‘ladi.

Buyuk Britaniyada esa vaziyat biroz farqli. London ko‘p madaniyatli shahar sifatida turli xil kiyinish uslublariga yanada bag‘rikeng muhit yaratadi. O‘zbek migrantlari bu muhitda milliy kiyim elementlarini kundalik hayotda ham nisbatan erkinroq qo‘llashini ta’kidladi. Manchester’da o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek migrantlari boshqa Osiyo diasporalarining – hind, pokiston – milliy kiyimlarini ko‘rganlarida o‘zlari ham milliy elementlarga bo‘lgan qiziqishlari ortishi kuzatildi.

Umumiy tendensiya esa ikkala mamlakatda bir xil: diaspora ichida milliy kiyinish elementlari kuchliroq namoyon bo‘ladi; ish va rasmiy muhitda integratsiya strategiyasi ustuvorlik qiladi; bayram va marosimlarda to‘liq milliy kiyimga qaytish kuzatiladi. Bu umumiy tendensiya Berry integratsiya modelining kiyinish sohasidagi barqaror ko‘rinishidir [8, 6. 15].

Tadqiqot kiyinish amaliyotlarida ongli madaniy qarshilik (cultural resistance) elementlari mavjudligini ko'rsatdi. Bir qator axborotchilar milliy kiyim elementlarini tanlashining sababini dominant madaniyatga «ko'rinmas» bo'lib ketmaslik istagi bilan bog'ladi. Bu holat tadqiqotchi Cohen ta'riflagan diaspora madaniyati nazariyasiga mos keladi: diaspora a'zolari o'z madaniy belgilarini faol saqlab qolish orqali dominant jamiyat bosimiga qarshilik ko'rsatadi [11, 6. 26].

Biroq bu qarshilik tajovuzkor emas – u “yumshoq qarshilik” (soft resistance) shakliga ega. Milliy naqshli bosh kiyimlar yoki atlas ko'ylak kiygan migrant Yevropa jamiyatiga ochiqchasiga qarshi chiqmaydi – u o'z madaniyatini ramziy tarzda ko'rsatib, “men ham bu yerda bor edim va o'z madaniyatimni yo'qotmadim” degan xabarni uzatadi.

Tadqiqot farzandlari bor axborotchilar orasida kiyinish madaniyatining avlodlararo uzatilishiga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatdi. Ota-onalar farzandlariga milliy kiyimlar kiydirishni ongli ravishda davom ettirmoqda – bu Levitt ta'riflagan “madaniy ijtimoiy remittans”ning bir ko'rinishidir [12, 6. 934]. Kiyim shu tarzda nafaqat shaxsiy identitetni, balki avlodlararo madaniy uzluksizlikni ta'minlovchi vosita sifatida ishlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kiyinish amaliyotlari vaqt o'tishi bilan takomillashib bormoqda: chet elda uzoqroq yashagan migrantlar yanada murakkab va estetik jihatdan ishlab chiqilgan gibrid uslublarni yaratmoqda. Bu hodisa “diaspora estetikasi”ning rivojlanishini ko'rsatib, tadqiqotchi Tulloch nazariyasini O'zbek diasporasi misolida tasdiqlaydi [4, 6. 132].

**Xulosa va takliflar.** Mazkur tadqiqot Germaniya va Buyuk Britaniyada yashovchi o'zbek migrantlarining kiyinish amaliyotlarini etnologik va antropologik jihatdan tahlil qilib, bir qator muhim xulosalar shakllantirdi.

Birinchidan, zamonaviy Yevropa uslubi bilan an'anaviy o'zbek milliy naqshlarini uyg'unlashtirgan «gibrid kiyinish uslubi» o'zbek migrantlari orasida keng tarqalgan. Milliy naqshli bo'yinbog'lar, atlas matoli zamonaviy ko'ylaklar va milliy naqshli aksessuarlar bu uslubning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi. Bu uslub tasodifiy moda hodisasi emas – u madaniy identitetni saqlash va ifodalashning ongli strategiyasidir.

Ikkinchidan, kiyinish amaliyotlari ijtimoiy kontekstga qarab o'zgaruvchan bo'lib, ish muhitida integratsiya, diaspora ichida esa milliy elementlar ustunligi kuzatiladi. Bu “situatsion integratsiya”ning kiyinish sohasidagi ko'rinishidir va Berry akkulturatsiya modelining empirik tasdiqidir.

Uchinchidan, kiyinish amaliyoti o'zbek migrantlari uchun uchta muhim funksiyani bajaradi: shaxsiy identitetni mustahkamlash, hamjamiyat aloqalarini saqlash va xorijiy jamiyatga

madaniyatni taqdim etish. Bu uchta funksiyaning birlashuvi kiyinishni madaniy identitetning eng ko‘rinadigan va faol ifodasiga aylantiradi.

To‘rtinchidan, gibril kiyinish uslubi Hall ta‘riflagan «uchinchi makon»ning moddiy ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. U dominant madaniyatga assimilyatsiya belgisi emas, balki ikki madaniyat orasidagi ongli muzokaraning natijasidir. Bu holat o‘zbek migrantlarining akkulturasiyasi assimilyatsiya emas, integratsiya yo‘lidan kechayotganini tasdiqlaydi.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun bir nechta istiqbolli yo‘nalishlar tavsiya etiladi: ikkinchi avlod migrantlarining kiyinish strategiyalarini o‘rganish; raqamli diaspora – ijtimoiy tarmoqlarda o‘zbek milliy kiyimlarining namoyish etilishi – hodisasini tahlil qilish; va gibril kiyinish uslubini iqtisodiy jihatdan – diaspora kiyim bozori shakllanishi – o‘rganish. Ushbu tadqiqot o‘zbek migratsiyasi va diaspora madaniyati sohasidagi bo‘shliqni to‘ldirish yo‘lida muhim qadam bo‘lib, kiyinish madaniyatini jiddiy etnologik tadqiqot obyekti sifatida e‘tirof etishga da‘vat etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Entwistle J. *The Fashioned Body: Fashion, Dress and Modern Social Theory*. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 282 p.
2. Kuchler S., Miller D. *Clothing as Material Culture*. – Oxford: Berg, 2005. – 248 p.
3. Simmel G. *Fashion* // *American Journal of Sociology*. – 1957. – Vol. 62, № 6. – P. 541–558.
4. Tulloch C. *The Birth of Cool: Style Narratives of the African Diaspora*. – London: Bloomsbury, 2016. – 256 p.
5. Morin E. *L’esprit du temps*. – Paris: Grasset, 1962. – 278 p.
6. Hall S. *Cultural Identity and Diaspora* // *Identity: Community, Culture, Difference* / Ed. by J. Rutherford. – London: Lawrence & Wishart, 1990. – P. 222–237.
7. Bhabha H.K. *The Location of Culture*. – London: Routledge, 1994. – 285 p.
8. Berry J.W. *Immigration, Acculturation, and Adaptation* // *Applied Psychology: An International Review*. – 1997. – Vol. 46, № 1. – P. 5–68.
9. Isabaeva E. *Leaving to Enable Others to Remain: Remittances and New Moral Economies of Migration in Southern Kyrgyzstan* // *Central Asian Survey*. – 2011. – Vol. 30, № 3–4. – P. 541–554.
10. Abashin S. *Migration from Central Asia: Theoretical and Methodological Issues* // *Journal of Eurasian Studies*. – 2019. – Vol. 10, № 1. – P. 85–94.
11. Cohen R. *Global Diasporas: An Introduction*. – London: UCL Press, 1997. – 228 p.

12. Levitt P. Social Remittances: Migration Driven Local-Level Forms of Cultural Diffusion // International Migration Review. – 1998. – Vol. 32, № 4. – P. 926–948.
13. Dala yozuvlari. Germaniya (Berlin, Myunxen va boshqa), 2022-2024-yillar.
14. Dala yozuvlari. Buyuk Britaniya (London, Manchester va boshqalar), 2022-2024-yillar.